

O'ZBEKISTONDAGI GM MONOPOLIYASINI QANDAY TUGATISH MUMKIN ?

**Pardayev Jasurbek**

*JIDU, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotasiya:** *O'zbekistonda avtomobil sanoati o'zining yuqori salohiyatiga ega. Bu sohasida ko'plab xorijiy ishlab chiqaruvchilar ham faoliyat yuritmoqda. General Motors (GM) kompaniyasi ham O'zbekistonda yana birinchi texnologiyalar bilan avtomobillarini ishlab chiqarib kelmoqda. Bu esa, avtomobil ishlab chiqarish sohasida bir nechta kompaniyalar o'rtasida monopolistik holatni yaratishi mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *Monopoliya, General Motors, monopolistik raqobat, avtomobil sanoati,*

Monopoliya o'zi nima? Monopollar o'zi biznes yuritadigan bozorni nazorat qiladi, bunda ularning raqobatchilari bo'lmaydi. Agar kompaniya va bozorlarda raqobatchilar mavjud bo'lmasa, iste'molchilar ilojisizlikdan monopollardan xarid qilishga majbur bo'ladi. Monopoliya shakllangan joyda narxlarni qimmatlashishi, mahsulotlar sifatining pastlashi hamda monopol kompaniya yoki ishlab chiqaruvchi ustida nazorat o'rnata olmaslik muammosi yuzaga chiqadi. Bu o'z xususida fuqarolarning huquqlari poymol qilinishiga, erkinlik va demokratiyaning cheklanishiga va juda ham ko'p e'tirozlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi.

O'zbek avtomobillarining narxlari deyarli har yili oshirilardi, biroq narxlarning eng sezilarli o'sishi 2017-yil 1-iyunida kuzatilgan edi — o'rtacha 30 foiz. Bu yil 1-avgust arafasida GM Uzbekistan narxlarni o'rtacha 14 foizga oshirishini e'lon qildi, biroq keyin bu qaror sal kechiktirildi. Xo'sh, nima uchun biz so'nggi yillarda narxlarning bu qadar keskin o'sishlariga guvoh bo'lyapmiz? Avtomobil narxlarining oshishiga asosiy sabab — 2017-yil 5-sentabrda amalga oshirilgan va milliy valyutani salkam rasman ikki barobarga qadrsizlantirgan so'm devalvatsiyasidir. Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, milliy valyuta kursini belgilashda faqatgina bozor mexanizmlarini qo'llash boshlandi. Oqibatda, 2017-yil 5-sentabrda Markaziy bank dollarning rasmiy kursini 8100 so'm etib belgiladi, vaholanki 4-sentabr kuni ham Markaziy bank Amerika dollarini 4210 so'mga baholayotgan edi. Shu sanadan boshlab GM Uzbekistan avtomobillarining chakana narxi faqat so'mda belgilana boshlandi.

Ko'pchilikning fikricha, GM Uzbekistan bozordagi monopol mavqeini suiiste'mol qilgan holda, narxlarni oshiradi. Biroq, qayd etish joiz, GM Uzbekistan monopoliyasi — bu odatiy tasavvurdagi sodda monopoliya emas.

GM Uzbekistan — aksiyadorlik jamiyati deb atalsa-da, unchalik ham xususiy kompaniya emas. Xususiy kompaniyalarning asosiy o'ziga xosliklaridan biri shundaki,

ular ta'sischiarning xususiy avtonomiyasi asosida tashkil etiladi. GM Uzbekistan esa davlat hujjati asosida — O'zbekiston Prezidentining qarori asosida tashkil etilgan va hozirda davlat kompaniyaning 90 foiz aksiyalariga egalik qilmoqda. "O'zavtosanoat" sobiq rahbari Umidjon Salimov ta'kidlaganidek, 2018-yil oxirigacha davlat Asakadagi GM Uzbekistan avtozavodining yagona aksiyadoriga aylanadi. Boz ustiga, "O'zavtosanoat" GM Powertrain Uzbekistan avtodvigatellar zavodi aksiyalarini sotib olish bo'yicha Amerika tomoni bilan muzokaralar olib bormoqda; hozircha bu zavodda O'zbekistonning ulushi atigi 30 foiz.

O'z-o'zidan, bu yerda monopoliya GM Uzbekistan'niki emas; monopolist — "O'zavtosanoat".

Monopoliyani yo'q qilishning oson usullaridan biri raqobatchilarni paydo qilish hisoblanadi. Raqobatchilar paydo bo'lgandan keyin narx o'z-o'zidan pastlaydi, mahsulotlarning sifat darajasi ortadi va xizmat ko'rsatish rivojlanadi. Monopoliyaga qarshi kurashishning yana bir usuli qonun taraflama monopoliyaga nisbatan doimiy yoki ma'lum bir muddatga cheklovlar qo'yib borish va qonunni konstitutsiya darajasida mustahkamlash. Ammo monopol kompaniya mamlakat iqtisodiyotiga doimiy foyda keltirib turadi va yuqori soliqlar to'lab boradi.

Mamlakatimizda ham monopoliyaga qarshi kurashish bo'yicha qator islohotlar hamda chora tadbirlar olib borilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son Farmonini va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4126-son qarorini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorni aytish mumkin. Bunga yana bir misol qilib Yangi Konstitutsiya loyihasining 67-moddasini keltirish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:**

1. AOvVaw2oGK8U63CL56XjoN0mncix
2. Vikipediya
3. Iqtisod.uz
4. Mikroiqtisodiyot o'quv qo'llanmasi